

U. Y.FAYZIYEVA

**TALAFFUZGA  
O'RGATISH  
METODIKASI  
DARSLIGI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**U.Y. FAYZIYEVA**

**TALAFFUZGA O‘RGATISH  
METODIKASI  
DARSLIGI**

*(Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maxsus ta‘limi bo‘yicha)*

«Ilm nurli kitob»  
Toshkent – 2024

UO‘K 376-056.2  
KBK 74.3  
F-72

**Muallif:**

*Fayziyeva Ubayda Yunusovna CHDPU*

**Taqrizchilar:**

**G.Saparova** – pedagogika fanlari doktori, professor CHDPU;  
**D. B. Yakubjanova** – pedagogika fanlari doktori, professor

Mazkur darslik 60112700 - «Surdopedagogika» ta’lim yo’nalishi bo’yicha Oliy ta’lim o’quv muassasasida tahsil oluvchi talabalar uchun mo’ljallangan bo’lib, «Eshitishida nuqsoni bo’lgan kar va zaif eshituvchi bolalarga talaffuzni o’rgatish metodikasi» fanining namunaviy dasturi asosida yaratilgan. Darslikda “Talaffuzni o’rgatish metodikasi” fanining nazariy asoslari; o’zbek tili talaffuzining me’yori va xususiyatlari; eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarning eshitish idrokining tasnifi; ilk bor kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limida ona tilini o’rganishning eng asosiy jihati bo’lgan talaffuzni o’rgatish metodikasi yaratildi.

Darslik ikki bo’lim 14 bobdan iborat. Darslikning barcha boblarida ko’tarilgan masalalar eshitishida nuqsoni bo’lgan kar va zaif eshituvchi o’quvchilarning talaffuz hamda nutqiy rivojlanishidagi o’ziga xos xususiyatlari hisobga olingan bo’lib, talaffuzga o’rgatish orqali og’zaki so’zlashuv nutqini, ya’ni kar va zaif eshituvchi bolalarda ona tilida erkin muloqot qilish ko’nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish metodikasi va korreksion usullari yoritilgan. Darslik maxsus pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo’shimcha manba sifatida foydalanilishi mumkin.

UO‘K 376-056.2  
KBK 74.3

*Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4 martdagi 55-sonli buyrug‘iga asosan chop etishga tavsiya qilingan. № 55348.*

ISBN 978-9910-9398-5-3

**MUNDARIJA**

Kirish.....	4
I bob. Kar va zaif eshituvchi o’quvchilarning talaffuzini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari.....	11
II bob. Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalarda talaffuz ko’nikmalarini shakllantirishning zaruriy shartlari.....	19
III Bob. Talaffuzni shakllantirish metodikasi kursining maqsad va vazifalari .....	23
IV bob. Talaffuz ko’nikmalarini shakllantirish - o’quvchilarni so’zlashuv nutqini shakllantirish orqali ijtimoiylashtirish asosi sifatida.....	30
V bob. Kar bolalarning og’zaki nutqini tekshiri tartibi va usullari..	35
VI bob. Nutqning hosil bo’lish mexanizmi .....	42
VII bob. O’zbek tilining fonemalar tizimi. ....	53
VIII bob. Yakka mashg’ulotlarning tuzilishi, maqsad va vazifalari.	66
IX bob. Kar bolalarda nutqiy nafas, ovoz va tovushlarni to’g’rilash usullari.....	72
XIII bob. Undosh tovushlar talaffuzi .....	92
X bob. Bog’langan nutqda uchraydigan kamchilik nuqsonlarni korreksiyalash usullari .....	110
Xulosalar .....	149
Adabiyotlar ro’yxati.....	157

## KIRISH

Respublikamizda iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim samaradorligiga erishish ustuvor vazifa qilib qo'yilmoqda. Oliy ta'limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori, jahon talablari darajasiga mos ravishda amalga oshirish maqsad va vazifalari belgilandi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari Defektologiya yo'nalishi talabalari maxsus pedagogikaning metodologik asoslari, maktabgacha va maktab ta'limi hamda "Ppedagogika", "Maxsus pedagogika fanlarining hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib borishi va bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida bilib berilishi hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib kelmoqda.

Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi nazariyasi va amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy ilg'or tajribalarni o'rganadilar.

Eshitishida muammolari bo'lgan (kar, zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish orqali og'zaki so'zlashuv nutqini shakllantirish bu toifa o'quvchilar ta'limida yetakchi o'rin egallaydi.

Oliy o'quv yurtlari bakalavriatining o'quv rejasida "Talaffuzga o'rgatish metodikasi" fani quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning nazariy va amaliy ahamiyati haqida tushunchalarini shakllantirish;

- talaffuzga o'rgatishda foniologiya fani bilan bog'liqligi (fonetika, tovushlarning talaffuz xususiyati, so'zlarning bog'lanishi, mantiqiy urg'u va boshqalar) haqida bilim berish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishi bo'yicha nazariy bilimlar berish, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- surdopedagogika yo'nalishi kasbiga qiziqish, o'z ustida ishlash hamda pedagogik ko'nikmani takomillashtirish;

- fanni o'tish metodikasiga oid adabiyotlar va ulardan foydalanish, amaliyotda qo'llash zarurligi haqida bilim berish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari haqida bilim berish.

Surdopedagogika yo'nalishidagi talablarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ularning mustaqil, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kasbiy bilim va ko'nikmalarini egallashiga alohida e'tibor qaratiladi.

Darslikda fan mavzusiga mos nazariy va amaliy materiallar bayon etilgan, hamda talabalarning mustaqil ishlashi uchun vazifalar ro'yxati berilgan.

Darslikning mazmuni talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish usullari, metodikasini mukammal yoritishga qaratilgan bo'lib, kar, zaif eshituvchi o'quvchilarda tilning asosiy elementi hisoblangan talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish orqali og'zaki nutqni ongli ravishda idrok etishga, to'g'ri talaffuz jarayonining umumiy va xususiy tomonlarini ajratishga, materialni qayta guruhlashtirishga, sxema va jadvallar tuzish, ko'xlear implantatsiya (KI) bo'gan bolalar eshitish va nutqiy rehabilitatsiyasiga doir vazifalar kiritilgan. Taklif etilayotgan darslikda surdopedagog olimlarning tadqiqotlari ma'lum tizim asosida keltirilgan. Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda yetakchi olimlarning ilmiy ishlari va xorijiy adabiyotlar, internet tizimidagi axborotlardan ma'lumotlar keltirilgan. Mavzularni yoritishda asosan hozirgi kungacha kar, zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida qo'llanilib kelingan talaffuzga o'rgatish va og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarga tayanilgan. Shu bilan bir qatorda respublikamizda eshitishda nuqsonlari bo'lgan kar, zaif eshituvchi bolalarga jarrohlik yo'li bilan (KI implant qo'yish) orqali eshitishni tiklash, tibbiy va surdopedagogik korreksiya va rehabilitatsiya Davlat dasturiga binoan talaffuz, va nutqiy ko'nikmalarni eshitish asosida amalga oshirish metodikasiga keng o'rin berilgan. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasi, respublikamiz surdopedagoglar tajribalari yoritilgan.

### 1. Fanning vazifalari

Dunyoda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini rivojlantirish, soha mutaxassislari (defektolog, surdopedagog, surdopsixolog)ning jamiyat va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni oshirishda kasbiy-intellektual muhitni axborot kommunikatsiya texnologiyalari (keyingi o'rinlarda AKT) yordamida tashkil etish, metodik yangiliklar yaratishda muhim motivatsion

qiymatga ega ekanligi tobora aktual bo'lib bormoqda. Shu jihatdan maxsus ta'lim mutaxassisleri - surdopedagoglarning innovatsion faoliyat mazmunini aniqlashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar maxsus – korreksion va inklyuziv ta'limini takomillashtirish va samaradorligini oshirish davlatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib, har bir yo'nalish bo'yicha, jumladan eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi yo'nalishida innovatsion resurs, tejamkor texnologiyalarni qo'llash, raqamlashtirilgan surdotexnologiyalarni joriy qilish bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, maxsus ta'lim mutaxassislarida milliy qadriyatlarga asoslangan innovatsion tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Pivojlangan davlatlar va bizning respublikamizda aksariyat hollarda KI bolgan, kichik yoshidan nuqsonli quloqlari eshitish apparatlari bilan protezlangan bolalar umumiy ta'limda inklyuziv tarzda ta'lim olishiga erishilishi albatta maxsus korreksiya, rehabilitatsiya ishlarining samarasi natijasidir. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmalari va nutqni eshitib taqlid qilish orqali o'rgatish zamonaviy surdopedagogning asosiy kasbiy yo'naloshi, yangiliklar yaratishda muhim motivatsion qiymatga ega bo'lgan aktual yo'nalish hisoblanadi. Mazkur darslik maxsus ta'limning bo'lajak surdopedagog mutaxassisleri zamonaviy, innovatsion faoliyat olib borishiga, shu asosda kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'p ilmiy izlanishlar olib borishga yo'naltirishga

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги 4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 6-сон. 70-модда.

mo'ljallangan.

Respublikamizda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, maxsus va inkluziv ta'lim mutaxassislarida alohida ehtiyojli bolalardagi nuqson va kamchiliklarni innovatsion yondashuvlar orqali rehabilitatsiyasi, ijtimoiylashuviga erishishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

"Ta'lim to'g'risidagi" Qonunning 5,9,15,20,34-moddalarida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy me'yorlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish"<sup>3</sup> kabi vazifalar belgilangan.

Respublikada umumiy o'rta maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ushbu hujjatga muvofiq eshitishida nuqsonlari bo'lgan barcha ta'lim muassasalari o'quvchilarini inkluziv ta'limga integratsiyasi vazifalari belgilangan. Kar bolalar ta'limida, zamonaviy ovozni kuchaytirib

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги 4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 6-сон. 70-модда.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиликлар сари. – Т.: Гафур Гулом номидagi нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.70-71.